

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**QO‘ZIYEV ZAFARBEK ESANOVICH**

**NASOS AGREGATLARI UCHUN SUV OQIMLARIGA  
MOSLASHTIRILGAN VERTIKAL O‘QLI MIKRO GIDROELEKTR  
STANSIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari  
asosidagi energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2024**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Qo‘ziyev Zafarbek Esanovich**

Nasos agregatlari uchun suv oqimlariga moslashtirilgan vertikal o‘qli  
mikro gidroelektr stansiyasini ishlab chiqish ..... 3

**Кузиев Зафарбек Эсанович**

Разработка микрогидроэлектростанции с вертикальной осью  
вращения, адаптированной к потокам воды для насосных агрегатов .... 25

**Kuziev Zafarbek Esanovich**

Development of a micro hydro power plant with a vertical axis of rotation,  
adapted to watercourses for pumping units ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 53

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**QO‘ZIYEV ZAFARBEK ESANOVICH**

**NASOS AGREGATLARI UCHUN SUV OQIMLARIGA  
MOSLASHTIRILGAN VERTIKAL O‘QLI MIKRO GIDROELEKTR  
STANSIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari  
asosidagi energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/T1950 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (kiei\_info@edu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Uzoqov G'ulom Norboyevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Urishev Bobaraim**  
texnika fanlari doktori, professor

**Qodirov Dilshod Botirovich**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi  
Energetika muammolari instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2020.T.111.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "20" 08 soat 15<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shoh ko'chasi, 225 uy. Tel: (75) 224-02-89, faks: (75) 224-13-95 e-mail: [kiei\\_info@edu.uz](mailto:kiei_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№111 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi shahri., Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Tel: (75)-224-02-89, faks: (75) 224-13-95 e-mail: [kiei\\_info@edu.uz](mailto:kiei_info@edu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "05" 08 kuni tarqatildi.  
(2024 yil "05" 08 dagi №23 raqamli reestr bayonnomasi)



**B.E. Xayriddinov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi v.v.b., t.f.d., professor

**X.A. Davlonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, t.f.f.d., dotsent

**B. Urishev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda gidroenergetika sohasida xususan, mikro gidroelektr stansiyalarining past naporli suv oqimlarida ishlash samardorligini oshirish va rivojlantirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. “Yevropa ittifoqining energetika sohasini rivojlantirish strategiyasida 2021 yildan 2030 yilgacha bo‘lgan davrda kichik quvvatli gidroenergetik qurilmalarini o‘rnatishga 2,56 milliard AQSh dollari yo‘naltirish va foydalanish ko‘rsatkichlarini 2,8 % ga oshirish rejalashtirilgan<sup>1</sup>”. Shu sababli, past naporli suv oqimlarini turbina parraklariga bir tekis uzatish imkonini beradigan yo‘naltiruvchi apparat, vertikal o‘qli turbina va takomillashtirilgan aksial elektr generator bilan jihozlangan vertikal o‘qli mikro gidroelektr stansiyalari ishlab chiqarish va amaliyotga tadbiiq qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda suv sarfi va nabori o‘zgaruvchan suv oqimlariga moslashtirilgan samarador vertikal o‘qli mikro gidroelektr stansiyalari ishlab chiqarish, mexanik, energetik, gidrologik va konstruktiv parametrlarini asoslash hamda samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, past naporli suv oqimlarida ishlaydigan propeller tipli gidroturbinaga ega mikro gidroelektr stansiyalari ishlab chiqarish, konstruktiv va ish rejimi parametrlarini modellashtirish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birga, gidroenergetik qurilmalar uchun ko‘p qutbli magnitoelektrik generatorlarni samaradorligini oshirish usulini takomillashtirish, suv oqimini suv g‘ildiragi parraklariga bir tekis yo‘naltiruvchi apparat konstruksiyasini ishlab chiqish, gidroenergetik qurilmalar parraklarining optimal o‘rnatilish burchagini aniqlash algoritmi asosida suv g‘ildiragi aylanish tezligining optimal qiymati va foydali ish koeffitsientining maksimal qiymatini aniqlash matematik modelini ishlab chiqish, ularning asosiy energetik parametrlarini asoslashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizdagi nasos agregatlari va fermer xo‘jaliklarining energiya ta‘minoti tizimida qayta tiklanadigan energiya manbalari qurilmalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, jumladan, past naporli suv oqimlariga moslashtirilgan mikro gidroelektr stansiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 30 martdagi PQ-104-son “Gidroenergetika sohasini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 7-bandida 2023 yil 1 avgustdan boshlab respublika hududidagi past naporli suv oqimlarida ishlaydigan innovatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali qo‘shimcha elektr energiyasini ishlab chiqarishni boshlash, tizimdagi korxonalar ishlab chiqarish bazasida 2024 yil 1 yanvarga qadar quvvati 1 MWgacha bo‘lgan, 2025 yil 1 yanvarga qadar quvvati 15 MWgacha bo‘lgan gidroagregatlarni ishlab chiqishni amalga oshirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan<sup>2</sup>. Mazkur vazifani amalga oshirish, jumladan, past naporli suv oqimlariga moslashtirilgan samarador vertikal o‘qli mikro gidroelektr

<sup>1</sup> International Renewable Energy Agency. URL: // <https://www.irena.org/europe>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 30 martdagi PQ-104-son “Gidroenergetika sohasini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. URL: // <https://lex.uz/uz/docs/6420310#6420486>

stansiyalarni yaratishning ilmiy-texnik yechimlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagi PQ-57-son “2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori, 2023 yil 30 martdagi PQ-104-son “Gidroenergetika sohasini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va boshqa ushbu yo‘nalishdagi hukumatimizning me‘yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilab berilgan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan miqdorda xizmat qiladi..

**Tadqiqotning respublika va fan texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining IV «Qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish usullarini rivojlantirish, nanotexnologiyalar, fotonika va boshqa zamonaviy ilg‘or texnologiyalar asosida qurilmalar va texnologiyalarni yaratish» ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Nasos agregatlari va fermer xo‘jaliklari iste‘molchilarining elektr energiyasi ta‘minoti tizimida vertikal o‘qli mikro gidroelektr stansiyalardan foydalanishni rivojlantirish, past naporli suv oqimlarida samarador ishlovchi vertikal o‘qli mikro gidroelektr stansiyalari yaratishning ilmiy-texnik yechimlarini ishlab chiqish bo‘yicha mashhur olimlar Kovalev N.N., Bezrukix P.P., Borkovskiy D., Kim S., Xueymn S., Yun-Man J., Kim X., Bach S., Yelistratov V.V., Malinin N.K., Satoshi H., Ivanov V.M., Zhang Jian, Belhadji L., Sritram P., Zahidov R.A., Allayev Q.R., Muhammadiyev M.M., Urishev B.U., Qodirov D.B., Bozarov O.O., Mamedov R.A., Mamadjanov A.B. va boshqalar katta hissa qo‘shgan.

Erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramasdan, suv sarfi va nabori o‘zgaruvchan suv oqimlariga moslashtirilgan, suv oqimini qurilma parraklariga bir tekisda uzatishda suv oqimlarini turbina parraklariga bir tekis uzatish imkonini beradigan yo‘naltiruvchi apparat, ko‘p qutbli takomillashtirilgan magnitoelektrik generator va gidravlik qarshilik kuchlarini kamaytirishda parraklari optimal burchak ostida o‘rnatilgan vertikal o‘qli mikro gidroelektr stansiyasi ishlab chiqish va parametrlarini asoslash bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan sanoat, qishloq xo‘jaligi va maishiy-kommunal sohalarda samarali foydalanishning ilmiy-texnik va energiya tejamkor usullarini ishlab chiqish” (2022 – 2024 yillar) loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** past naporli suv oqimlariga moslashtirilgan vertikal o‘qli mikro gidroelektr stansiyasi konstruksiyasining energetik parametrlarini asoslashdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

past naporli suv oqimlariga moslashtirilgan vertikal o'qli mikro gidroelektr stansiyasi konstruksiyasini ishlab chiqish;

mikro gidroelektr stansiyasining konstruktiv o'lchamlari, mexanik, energetik parametrlarining suv oqimi sarfi va gidroturbina aylanma tezligiga bog'liqligini tavsiflovchi matematik modelini ishlab chiqish;

mikro gidroelektr stansiyasining past naporli suv oqimlarida samaradorligini oshirishda suv oqimini suv g'ildiragi parraklariga bir tekis yo'naltiruvchi apparat konstruksiyasini ishlab chiqish va o'lchamlarini asoslash;

past naporli suv oqimlaridan foydalanib ishonchli elektr energiyasini olishda kichik tezlikli magnitoelektrik generator modelini ishlab chiqish;

gidroenergetik qurilma foydali ish koeffitsienti va mexanik quvvatining suv oqimi sarfi, nabori, gidroturbina aylanish tezligiga va parraklarning optimal o'rnatilish burchaklari o'zgarishiga bog'liqligini aniqlash;

vertikal o'qli mikro gidroelektr stansiyasining texnik-iqtisodiy va ekologik samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida past naporli suv oqimlariga moslashtirilgan vertikal o'qli mikro gidroelektr stansiyasi va uning energetik parametrlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** past naporli suv oqimlarida ishlovchi vertikal o'qli mikro gidroelektr stansiyasining parametrlari, suv g'ildiragi parraklarini optimal o'rnatish burchagini aniqlash geometrik qonuniyatlari, mexanik energiyani elektr energiyaga aylantirish jarayonlaridan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida matematik va kompyuter modellashtirish, polinomial approksimatsiyalash usuli, optimallashtirishning sonli usuli, tajriba natijalarni qayta ishlashda darajali polinom yordamida approksimatsiyalash va iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda sof diskontlangan foyda usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- ilk marotaba past naporli suv oqimlarini qurilma parraklariga bir tekis uzatish imkonini beradigan yo'naltiruvchi apparat, ko'p qutbli takomillashtirilgan magnitoelektrik generator bilan jihozlangan va gidravlik qarshilik kuchlarini kamaytirishda parraklari optimal burchak ostida o'rnatilgan vertikal o'qli mikro gidroelektr stansiyasi ishlab chiqilgan (№ IAP 07462);

- gidroturbinada o'rnatilgan suv oqimi aylanma harakatlanuvchi maxsus havza ichida joylashtirilgan kurakchalarning balandligi, o'rnatilish burchagi, yo'naltiruvchi apparatning ichki radiusiga bog'liq suv oqimini yo'naltiruvchi kurakchalardan oqib o'tuvchi suv sarfini maksimal qiymatining o'zgarish chegaralarini aniqlaydigan matematik model ishlab chiqilgan;

- suv oqimi sarfi va nabori o'zgarishini hisobga olgan holda, gidroenergetik qurilma parraklarining optimal o'rnatilish burchagi, suv g'ildiragining optimal aylanish tezligi va maksimal foydali ish koeffitsientini aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

- past naporli suv oqimlariga moslashtirilgan vertikal o'qli gidroenergetik qurilmasida o'tkazilgan tajriba tadqiqotlari umumlashtirilib, gidroturbina mexanik

quvvatining qurilma konstruktiv o'lchamlari, suv oqimi sarfi va gidroturbina aylanish tezligi o'zgarishiga bog'liqligini ifodalovchi regressiya tenglamasi olingan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

nasos agregatlari va fermer xo'jaliklari uchun past naporli suv oqimlarida samarador ishlovchi vertikal o'qli mikro gidroelektr stansiyasi ishlab chiqilgan;

gidroturbinada gidravlik qarshilik kuchlarini kamaytirishda parraklari optimal burchak ostida o'rnatilgan bo'lib, bunda qurilma hajmining ixchamlashishi, energiya va resurs sarflarining kamayishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amalga oshirilgan izlanishlarni zamonaviy o'lchash asboblari va usullar orqali o'tkazilganligi, tajriba-sinovlarining natijalarini tekshirish va qayta ishlash jarayonida matematik modellashtirish usullaridan foydalanilganligi, tajriba ishlarini o'tkazishda tabiiy sharoit qo'llanilganligi, nazariy va tajriba tadqiqotlari o'zaro monandligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan past naporli suv oqimlariga moslashtirilgan vertikal o'qli mikro gidroelektr stansiyasi sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalari ilmiy ahamiyati sifatida gidroturbinada o'rnatilgan yo'naltiruvchi kurakchalardan oqib o'tuvchi suv sarfining maksimal qiymatining o'zgarish chegaralari, energetik qurilmaning parraklari o'rnatilish burchagi va turbina aylanish tezliklarining optimal qiymati hamda foydali ish koeffitsientining maksimal qiymatini matematik modellar va analitik bog'lanishlarni boshqa turdosh qurilmalarning parametrlarini asoslashda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan vertikal o'qli mikro gidroelektr stansiyasi past naporli suv oqimlariga ega bo'lgan hududlarda talab darajasida ishlashi, bunda 5...10 % gacha yoqilg'i-energetika resurslari xarajatlarini kamaytirishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Suv sarfi va nabori o'zgaruvchan suv oqimlariga moslashtirilgan vertikal o'qli mikro gidroelektr stansiyasini ishlab chiqish, parametrlarini asoslash hamda joriy etish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Vertikal o'qli gidroenergetik qurilma uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan ixtiroga patent olingan (№ IAP 07462). Natijada, qurilmaning past naporli suv oqimlarda ishlash samaradorligi (FIK) ni 3...5 % gacha oshirish imkoniyati yaratilgan;

past naporli suv oqimlarini qurilma parraklariga bir tekis uzatish imkonini beradigan yo'naltiruvchi apparat, ko'p qutbli takomillashtirilgan magnitoelektrik generator bilan jihozlangan va gidravlik qarshilik kuchlarini kamaytirishda parraklari optimal burchak ostida o'rnatilgan vertikal o'qli mikro gidroelektr stansiyasi ishlab chiqilgan ("Energetika Vazirligi"ning 2023 yil 6 noyabrdagi 04-13/6781-son ma'lumotnomasi). Natijada, past naporli suv oqimlarida energiya ishlab chiqarish hajmi 25...30 % gacha oshirish imkoni yaratilib, elektr energiyasi iste'moli ishonchliligi va uzluksizligi ta'minlanishiga erishilgan;

yaratilgan vertikal o'qli mikro gidroelektr stansiyasini Buxoro viloyati Buxoro tumanidagi "Buxoro Chorvo Omad" MChJga qarashli fermer xo'jaligida joriy

etilgan (“Energetika Vazirligi”ning 2023 yil 6 noyabrdagi 04-13/6781-son ma’lumotnomasi). Natijada, 3 kW quvvatli vertikal o’qli mikro gidroelektr stansiyasi yordamida yiliga 19 500 kW·h elektr energiyasi ishlab chiqarildi, bir yilda o’rtacha 14,53 t.sh.y. tejalishi (3 kW quvvatli benzin generatoriga nisbatan) va 28,5 tonnadan ortiq karbonat angidrid (CO<sub>2</sub>) gazi atmosferaga chiqarib yuborilishining oldini olishga erishilgan, elektr ta’minotiga nisbatan (“Sof diskontlangan foyda” usulidan foydalanib hisoblashlar amalga oshirilgan, elektr energiyasi narxi 900 so‘m/kW·h qabul qilingan) 68,96 mln. so‘m mablag‘ni iqtisod qilishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot ishining natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanlarida, jumladan, 4 ta xalqaro va 4 ta respublika anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning natijalari asosida jami 21 ta ilmiy ish nashr etilgan bo’lib, shulardan, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari nashr etishga tavsiya qilgan ilmiy-texnik nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 5 ta Respublika va 2 ta xorijiy jurnallarida chop qilingan, O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining EHM uchun 3 ta dasturiy mahsulotiga mualliflik guvohnomasi hamda ixtiroga 1 ta patent olingan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, to’rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovadan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 117 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida o’tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo’yicha xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Vertikal o’qli mikro gidroelektr stansiyalaridan foydalanishning zamonaviy holati tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida jahonda mikro gidroelektr stansiyalaridan foydalanishning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari, o’zgaruvchan va past naporli suv oqimlarida ishlovchi vertikal o’qli mikro gidroelektr stansiyalarini ishlab chiqish va samaradorligini oshirish bo’yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, konstruktiv yechimlar tahlili natijalari, markazlashtirilgan elektr ta’minoti tizimiga ulanmagan elektr iste’molchilarning elektr energiyasi uzluksizligini ta’minlash va ishonchliligini oshirishda mikro gidroelektr stansiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, mikro gidroelektr stansiyalarda kichik tezlikli magnitoelektrik generatorlarni qo’llash tahlillari keltirilgan. Erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramasdan, suv sarfi va nabori o’zgaruvchan suv oqimlariga moslashtirilgan, suv oqimini qurilma parraklariga bir

tekisda uzatishda suv oqimi aylanma harakatlanuvchi maxsus havza ichida joylashtirilgan suv oqimini yoʻnaltiruvchi apparat, kichik tezlikli takomillashtirilgan magnitoelektrik generator va gidravlik qarshilik kuchlarini kamaytirishda parraklari optimal burchak ostida oʻrnatilgan vertikal oʻqli mikro gidroelektr stansiyasini ishlab chiqish va parametrlarini asoslashda dissertatsiyaning maqsad va vazifalari shakillantirildi.

Dissertatsiyaning “**Vertikal oʻqli mikro gidroelektr stansiyasining nazariy tadqiqoti**” deb nomlangan ikkinchi bobida mikro gidroelektr stansiyasida qoʻllanilgan suv oqimini yoʻnaltiruvchi apparat konstruksiyasini nazariy hisoblash uslubiyoti, oʻzgaruvchan va past naporli suv oqimlarida ishlovchi vertikal oʻqli gidroturbinaning kompyuter modeli, suv gʻildiragi parraklari suv bilan taʼsirlashish burchagining optimal qiymatini aniqlashning nazariy hisobi, mikro gidroelektr stansiyasiga qoʻllanilgan kichik tezlikli takomillashtirilgan magnitoelektrik generatorning analitik ifodalari keltirilgan.

Taklif etilgan mikro gidroelektr stansiyasida qoʻllanilgan suv oqimini yoʻnaltiruvchi apparat kurakchalarining asosiy geometrik oʻlchamlari 1 (a) rasmda keltirilgan. 1 (b) rasmda yoʻnaltiruvchi apparatdan chiquvchi suv oqimining tezlik diagrammasi, 1 (d) rasmda esa suv gʻildiragidan chiquvchi suv oqimining tezlik diagrammasi keltirilgan.



a – yoʻnaltiruvchi kurakchalar; b – yoʻnaltiruvchi apparatdan chiquvchi suv oqimining tezlik diagrammasi; d – suv gʻildiragidan chiquvchi suv oqimining tezlik diagrammasi.


**1-rasm. Yoʻnaltiruvchi apparatning asosiy geometrik oʻlchamlari.**

Mikro gidroelektr stansiyasida qo‘llanilgan suv oqimini yo‘naltiruvchi apparat kurakchalaridan oqib o‘tuvchi suv sarfini maksimal qiymatini aniqlashda yo‘naltiruvchi kurakchalarning balandligi, yo‘naltiruvchi kurakchalardan suv oqimini chiqish burchagi va suv g‘ildiragidan suv oqimini chiqish burchagiga bog‘liq holda aniqlash imkonini beradigan analitik ifodasi quyidagicha:

$$Q = \frac{\frac{\eta g H}{\omega} - u_2 r_2}{\frac{1}{2\pi b_0} ctg \alpha_0 + \frac{r_2}{F_2} ctg \beta_2} \quad (1)$$

bu yerda,  $\eta$  – turbinaning foydali ish koeffitsienti;  $g$  – erkin tushish tezlanishi,  $m/s^2$ ;  $H$  – gidravlik napor, m;  $u_2$  – parraklarning chiqish qismidagi aylanma (ko‘chma) tezlik, m/s;  $r_2$  – suv g‘ildiragining ichki radiusi, m;  $b_0$  – yo‘naltiruvchi apparatning balandligi, m;  $\alpha_0$  – yo‘naltiruvchi apparatdan suv oqimini chiqish burchagi, grad;  $F_2$  – suv g‘ildiragining kesim yuzasi,  $m^2$ ;  $\beta_2$  – suv g‘ildiragidan suv oqimini chiqish burchagi, grad.

2-rasmdagi vertikal o‘qli gidroturbinaning tezlik diagrammasi keltirilgan. Vertikal o‘qli gidroturbina parametrlarining suv oqimiga bog‘liqligi quyidagi tenglamalar asosida keltirib chiqarildi:



2-rasm. Vertikal o‘qli gidroturbinaning tezlik diagrammasi.

$$\eta_1 = \frac{M_1 \frac{2\pi n_1}{60}}{\rho g Q_1 H_1} = \frac{30 M_1 \pi n_1 \sin(\beta_1 - \alpha_1)}{\rho Q_1 (n_1^2 \pi^2 R_1^2 \cos \alpha_1 \sin \beta_1 + 900 g \Delta H_1 \sin(\beta_1 - \alpha_1))} \quad (4)$$

bu yerda,  $\rho$  – suvning zichligi,  $kg/m^3$ ;  $Q_1$  – 1-gidroturbinaga kiruvchi suv oqimining sarfi,  $m^3/s$ .

2-gidroturbinaning to‘la nabori quyidagi formula bilan aniqlandi.

$$H_{t2} = \frac{n_2^2 \pi^2 R_3^2 \cos \alpha_3 \sin \beta_3}{900 g \sin(\beta_3 - \alpha_3)} \quad (5)$$

1-gidroturbinaning to‘la nabori quyidagi formula bilan aniqlandi.

$$H_{t1} = \frac{n_1^2 \pi^2 R_1^2 \cos \alpha_1 \sin \beta_1}{900 g \sin(\beta_1 - \alpha_1)} \quad (2)$$

bu yerda,  $R_1$  – 1-gidroturbinaning tashqi radiusi, m;  $n_1$  – 1-gidroturbinaning aylanma tezligi, ayl/min;  $\alpha_1$  – suv oqimining 1-gidroturbinaga kirish burchagi, grad;  $\beta_1$  – suv oqimining 1-gidroturbinadan chiqish burchagi, grad;  $g$  – erkin tushish tezlanishi,  $m/s^2$ .

1-gidroturbinaga kiruvchi suv oqimining nabori quyidagi ifoda yordamida hisoblandi.

$$H_1 = \frac{n_1^2 \pi^2 R_1^2 \cos \alpha_1 \sin \beta_1}{900 g \sin(\beta_1 - \alpha_1)} + \Delta H_1 \quad (3)$$

bu yerda,  $\Delta H_1$  – 1-turbinadagi napor yo‘qotilishi, m.

1-gidroturbinaning foydali ish koeffitsienti aniqlandi.

bu yerda,  $R_3$  – 2-gidroturbina-ning tashqi radiusi, m;  $n_2$  – 2-gidroturbinaning aylanma tezligi, ayl/min;  $\alpha_3$  – suv oqimining 2-gidroturbinaga kirish burchagi, grad;  $\beta_3$  – suv oqimining 2-gidroturbinadan chiqish burchagi, grad.

2-gidroturbinaga kiruvchi suv oqimining nabori quyidagi ifoda yordamida hisoblandi.

$$H_2 = \frac{n_2^2 \pi^2 R_3^2 \cos \alpha_3 \sin \beta_3}{900 g \sin(\beta_3 - \alpha_3)} + \Delta H_2 \quad (6)$$

bu yerda,  $\Delta H_2$  – 2-turbinadagi napor yo‘qotilishi, m.

2-gidroturbinaning foydali ish koeffisienti aniqlandi.

$$\eta_2 = \frac{M_2 \frac{2\pi n_2}{60}}{\rho g Q_2 H_2} = \frac{30 M_2 \pi n_2 \sin(\beta_3 - \alpha_3)}{\rho Q_2 (n_2^2 \pi^2 R_3^2 \cos \alpha_3 \sin \beta_3 + 900 g \Delta H_2 \sin(\beta_3 - \alpha_3))} \quad (7)$$

bu yerda,  $Q_2$  – 2-gidroturbinaga kiruvchi suv oqimining sarfi, m<sup>3</sup>/s.

Magnitoelektrik aksial generatorning matematik modelini ishlab chiqishda Lagranj formulasi matritsaviy shaklidan foydalanildi.

$$\frac{d}{dt} \psi_{PM}(\varphi) = u + \left\{ L \frac{d}{dt} i + R_s \cdot i \right\} \quad (8)$$

Quyidagi muvozanat tenglamasini hosil qilindi:

$$J \frac{d^2 \varphi}{dt^2} = T_L + T_{em}(\varphi, i_1, i_2, i_3) - D \frac{d\varphi}{dt} \quad (9)$$

Elektromagnit momentni quyidagi formula orqali aniqlandi:

$$T_{em}(\varphi, i_1, i_2, i_3) = i^T \cdot \frac{\partial}{\partial \varphi} \psi_{PM}(\varphi) \quad (10)$$

bu yerda,  $i$  – generatorning faza chulg‘amlaridan o‘tuvchi tok, A;  $u$  – generatorning faza chulg‘amlarida induksiyanlangan kuchlanish, V.

$$i = \begin{bmatrix} i_1 \\ i_2 \\ i_3 \end{bmatrix}; \quad u = \begin{bmatrix} u_1 \\ u_2 \\ u_3 \end{bmatrix}$$

$$L = L_{\sigma s} + L_s = \begin{bmatrix} L_{\sigma s} & & \\ & L_{\sigma s} & \\ & & L_{\sigma s} \end{bmatrix} + \begin{bmatrix} L_{11} & L_{12} & L_{13} \\ L_{21} & L_{22} & L_{23} \\ L_{31} & L_{32} & L_{33} \end{bmatrix}$$

$$\psi_{PM}(\varphi) = \begin{bmatrix} \psi_{PM1}(\varphi) \\ \psi_{PM2}(\varphi) \\ \psi_{PM3}(\varphi) \end{bmatrix}; \quad R_s = \begin{bmatrix} R_s & & \\ & R_s & \\ & & R_s \end{bmatrix}$$

„ $a$ ” faza chulg‘amining magnit oqimi  $\psi_a$  ni quyidagicha aniqlandi.

$$\psi_a(\varphi) = \int_{R_i}^{R_o} w_s \left\{ \int_{\frac{-\varepsilon(r) + \alpha_k(r)}{2} + x_a}^{\frac{-\varepsilon(r) - \alpha_k(r)}{2} + x_a} B(x, \varphi, r) dx \right\} r dr \quad (11)$$

(16) ifodani integrallab  $B(x, \varphi, r)$  magnit induksiyaning taqsimlanishini aniqlash murakkablik tug‘diradi. Biroq, uning o‘rtacha qiymatini quyidagi soddalashtirilgan ifodadan aniqlash mumkin.

Boshlang‘ich (chulg‘amda induksion tok bo‘lmagan) holatda doimiy magnitlarning „ $a$ ” chulg‘amdagi oqim ilashuvining o‘rtacha qiymati  $\psi_{PMa}$  quyidagi ifodada keltirilgan.

$$\psi_{PMa}(\varphi) = \sum_{\zeta \in Q} \psi_{\zeta}^{PMs} \cdot e^{j\zeta \left\{ (a-1) \frac{4\pi}{3p} - \varphi \right\}} \quad \text{bunda } a = 1, 2, 3 \quad (12)$$

$\zeta^{th}$  – tartibli garmonikadagi oqim ilashuvi quyidagi ifoda yordamida hisoblandi:

$$\psi_{\zeta}^{PMs} = 2 \cdot B_{\zeta}^{PM}(r_s) \cdot W_{\zeta}^s(r_s) \cdot r_s \cdot l_c \quad (13)$$

bu yerda,  $l_c = R_o - R_i$  - chulg'am bo'yining uzunligi, m.

Mashina chulg'amlarining induktivligini aniqlash tenglamasi.

$$L_{ab} = \sum_{v \in P} L_v^{SS} \cdot e^{jv(a-b) \frac{4\pi}{3p_s}} \quad \text{bunda } a, b = 1, 2, 3 \quad (14)$$

Bitta faza chulg'amining induktivligining analitik ifodasi.

$$L_v^{SS} = \frac{2}{\pi} [W_v^s(r_s)]^2 \cdot r_s \cdot l_c \cdot \lambda_o \quad (15)$$

O'zaro induktivlikning analitik ifodasi ikkita tashkil etuvchidan iborat. Ulardan birinchisi o'tkazgichning aktiv qismidagi magnit oqimning sochilishi bilan ifodalanadi, ikkinchisi esa chulg'amning klemmlaridagi magnit oqim sochilishi hisoblanadi. O'zaro induktivlik quyidagi formula orqali aniqlandi.

$$L_{\sigma s} \approx 2\mu_o \cdot (w_s)^2 \cdot [(l_c - a_{sc}) + (a_c - a_{sc})] \cdot 0,3 / p_s \quad (16)$$


Uch fazali doimiy magnitlardan tashkil topgan generatordan olinadigan elektromagnit quvvatni hisoblash quyida keltirilgan ifodadan aniqlandi:

$$P_e = \frac{3}{2} \omega [\psi_{PM} + (L_d - L_q) i_d] i_q \quad (17)$$

bu yerda,  $\omega$  – generatorning burchak tezligi, rad/s.

Taklif etilgan vertikal o'qli gidroturbina parametrlarining suv oqimiga bog'liqlik matematik modeli turbinalarning asosiy mexanik va energetik parametrlarini hisoblashda foydalaniladi. Magnitoelektrik aksial generatorning matematik modeli esa generatorning chiqish parametrlarini aniqlash imkonini beradi.

Dissertasiyaning **“Vertikal o'qli mikro gidroelektr stansiyasini ishlab chiqish va tajriba tadqiqotlari”** deb nomlangan uchinchi bobida o'zgaruvchan va past naporli suv oqimlarida moslashtirilgan mikro gidroelektr stansiyasining konstruktiv sxemasi ishlab chiqildi.



1 - vertikal o'qli mikro GES; 2 – kanal; 3 - rama; 4 – quvur; 5,6 - val; 7 - suv oqimi harakatlanuvchi havza; 8,17 - yo'naltiruvchi apparat; 9,12 - parrak; 10,13 - suv g'ildiragi; 11,14,27 – vtulka; 15,16,18 - podshipnik; 19,20 - induktor; 21 –doimiy magnitlar; 22 – yakor; 23 – mis chulg'amlar; 24 – magnitoelektrik aksial generator; 25 – flans birikma; 26 – metal disk; 28,29 – tasmali uzatmalar; 30 – cho'tka; 31 – kollektor.

**3-rasm. Vertikal o'qli mikro GES ning umumiy ko'rinishi (a), mikro GES ning vertikal qirqimi (b).**

O‘zgaruvchan va past naporli suv oqimlariga moslashtirilgan mikro GES uchun aniqlangan talablardan kelib chiqqan holda 3 (a) rasmda ishlab chiqilgan vertikal o‘qli mikro GESning umumiy ko‘rinishi keltirilgan (№ IAP 07462). 3 (b) rasmda esa mikro GESning vertikal qirqimi ko‘rsatilgan.

Suv oqimi sarfi 0,15...0,24 m<sup>3</sup>/s va gidroturbina aylanish tezligi 0...240 ayl/min o‘zgarishini, gidroturbina g‘ildiragining tashqi diametri D<sub>1</sub> va parraklar soni Z inobatga olinib, suv oqimining gidravlik nabori H, mexanik momenti M, mexanik quvvati P va foydali ish koeffisientini η aniqlash imkonini beradigan polinomial tenglamalar Matlab/Simulink, Solidworks va Ansys Fluent tizimlarida modellashtirish hamda takomillashtirilgan vertikal o‘qli mikro gidroelektr stansiyasi chiqish parametrlarining suv oqimi sarfi va tezligiga bog‘liqligi analitik va eksperimental tadqiqot natijalari asosida keltirilgan.

SST k-ω turbulentslik modeli gidroenergetik qurilmani modellashtirishda foydalanildi va quyidagi ifodalar orqali aniqlanadi:


$$\begin{cases} \frac{\partial}{\partial t}(\rho k) + \frac{\partial}{\partial x_j}(\rho k u_j) = \frac{\partial}{\partial x_j} \left( \Gamma_k \frac{\partial k}{\partial x_j} \right) + G_k - Y_k + S_k \\ \frac{\partial}{\partial t}(\rho \omega) + \frac{\partial}{\partial x_i}(\rho \omega u_i) = \frac{\partial}{\partial x_j} \left( \Gamma_\omega \frac{\partial \omega}{\partial x_j} \right) + G_\omega - Y_\omega + D_\omega + S_\omega \end{cases} \quad (18)$$

bu yerda,  $k$  – turbulentslikning kinetik energiyasi, m<sup>2</sup>/s<sup>2</sup>;  $\omega$  – solishtirma tezlik;  $\rho$  – zichlik, kg/m<sup>3</sup>;  $u_i$  – (i=1,2,3) chiziqli tezlik, m/s;  $t$  – vaqt, s;  $\Gamma_k$  va  $\Gamma_\omega$  –  $k$  turbulentslikning kinetik energiyasi va  $\omega$  solishtirma tezlikning samaradorligini tavsiflovchi elementlar;  $G_k$  va  $G_\omega$  –  $k$  turbulentslikning kinetik energiyasi va  $\omega$  solishtirma tezlikni hosil bo‘lishini tavsiflovchi elementlar;  $Y_k$  va  $Y_\omega$  –  $k$  turbulentslikning kinetik energiyasi va  $\omega$  solishtirma tezlikni sarf bo‘lishini tavsiflovchi elementlar;  $D_\omega$  – ortogonal divergensiya;  $S_k$  va  $S_\omega$  – yuklamani tavsiflovchi elementlar.

4-rasmda SST k-ω turbulentslik modeli yordamida mikro GESning Ansys Fluent dasturida modellashtirildi. Modellashtirish natijalari asosida vertikal o‘qli mikro gidroelektr stansiyasi turbinalarining asosiy mexanik va energetik ko‘rsatgichlarining suv oqimi sarfi va turbinaning aylanish tezligi o‘zgarishiga bog‘liqlik tenglamalari Matlab amaliy paketida polinomial approksimatsiyalash metodi yordamida aniqlandi. Tadqiqot ishida propeller tipidagi gidroturbina radiusi 0,5 m, unga kiruvchi suv sarfi 0,15...0,24 m<sup>3</sup>/s va turbinaning aylanish tezligi 0...240 ayl/min oraliqda bo‘lganda suv oqimi sarfi va aylanish tezliklarining asosiy kattaliklarga bog‘liqlik tenglamalari hosil qilindi.

Mikro gidroelektr stansiyasining maksimal samaradorligi (FIK)ga erishish optimallik mezoni sifatida ishlatildi:

$$\begin{cases} H(Q, n) \rightarrow \max; & \Delta H \rightarrow \min \\ P(Q, n) \rightarrow \max; & \Delta H \rightarrow \min \\ \eta(Q, n) \rightarrow \max; & \Delta H \rightarrow \min \end{cases} \quad (19)$$



**4-rasm. Mikro GESning Ansys Fluent dasturida tadqiq qilingan modellashtirish natijalari.**

Quyidagi shartlar qabul qilindi: 
$$\begin{cases} 0,15 \leq Q \leq 0,24 \text{ m}^3/\text{s} \\ 0 < n < 240 \text{ ayl/min} \\ D_1 = 0,5 \text{ m} \end{cases}$$

Gidroturbina naporining turbina aylanish tezligi va suv oqimi sarfiga bog‘liqlik tenglamasi hosil qilindi.

$$H_t(Q, n) = 19,1927 \cdot Q - 0,0063 \cdot n - 48,5963 \cdot Q^2 + 0,0957 \cdot Q \cdot n - 0,000067294 \cdot n^2 - 1,7367 \quad (20)$$

bu yerda,  $Q$  – suv oqimining sarfi,  $\text{m}^3/\text{s}$ ;  $n$  – gidroturbinaning aylanish tezligi,  $\text{ayl/min}$ .

5 (a) rasmda gidroturbina naporining turbina aylanish tezligi va suv oqimi sarfiga bog‘liqlik grafiqi qurildi. Suv oqimi sarfi  $0,15 \dots 0,24 \text{ m}^3/\text{s}$  va turbinaning aylanish tezligi  $0 \dots 240 \text{ ayl/min}$  oraliqda o‘zgarganda gidroturbinaning napori  $0,2 \dots 1,1 \text{ m}$  oraliqda o‘zgardi.

Gidroturbinaning mexanik momentining turbina aylanish tezligi va suv oqimi sarfiga bog‘liqlik tenglamasi keltirib chiqarildi.

$$M(Q, n) = 2551,4 \cdot Q - 1,5041 \cdot n - 227,7833 \quad (21)$$

Turbina mexanik momentining aylanish tezligi va suv oqimi sarfiga bog‘liqlik grafiqi hosil qilindi (5 (b) rasm). Suv oqimi sarfi  $0,15 \dots 0,24 \text{ m}^3/\text{s}$  va turbinaning aylanish tezligi  $0 \dots 240 \text{ ayl/min}$  oraliqda o‘zgarganda turbinaning mexanik momenti  $396 \text{ N} \cdot \text{m}$  gacha o‘zgarishi aniqlandi.

Gidroturbina mexanik quvvatining aylanish tezligi va suv oqimi sarfiga bog‘liqlik tenglamasi Matlab amaliy paketi yordamida keltirib chiqarildi.

$$P_t(Q, n) = 28031 \cdot Q - 14,1294 \cdot n - 66613 \cdot Q^2 + 213,4498 \cdot Q \cdot n - 0,1502 \cdot n^2 - 2814,5 \quad (22)$$

5 (d) rasmda uzluksiz chiziq bilan 1-gidroturbinada suv oqimi sarfining turli qiymatlarida ( $6-Q_{11}=0,24 \text{ m}^3/\text{s}$ ,  $5-Q_{12}=0,21 \text{ m}^3/\text{s}$ ,  $3-Q_{13}=0,18 \text{ m}^3/\text{s}$ ) va siniq chiziq bilan 2-gidroturbinada suv oqimi sarfining turli qiymatlarida ( $4-Q_{21}=0,19 \text{ m}^3/\text{s}$ ,  $2-Q_{22}=0,17 \text{ m}^3/\text{s}$ ,  $1-Q_{23}=0,14 \text{ m}^3/\text{s}$ ) gidroturbinalardagi mexanik quvvatning turbina


aylanish tezligiga bog'liqlik grafigi ko'rsatilgan. 1-gidroturbinada suv sarfining maksimal qiymati 0,24 m<sup>3</sup>/s bo'lganda mexanik quvvatning qiymati 2338 W va aylanish tezligi 120 ayl/min, o'z navbatida 2-gidroturbinada suv sarfining maksimal qiymati 0,19 m<sup>3</sup>/s ga tengligi hamda mexanik quvvatning qiymati 1243 W va aylanish tezligi 80 ayl/min ekanligi aniqlandi.

Gidroturbinaning mexanik quvvatining suv oqimining quvvatiga nisbatidan foydali ish koeffisientini suv sarfi va aylanish tezligiga bog'liqlik tenglamasi hosil qilindi.

$$\eta(Q, n) = \frac{28031 \cdot Q - 14,1294 \cdot n - 66613 \cdot Q^2 + 213,4498 \cdot Q \cdot n - 0,1502 \cdot n^2 - 2814,5}{\rho \cdot g \cdot Q \cdot (19,1927 \cdot Q - 0,0063 \cdot n - 48,5963 \cdot Q^2 + 0,0957 \cdot Q \cdot n - 0,000067294 \cdot n^2 - 1,7367 + \Delta H)} \quad (23)$$

bu yerda:  $\rho$  – suvning zichligi, kg/m<sup>3</sup>;  $g$  – erkin tushish tezlanishi, m/s<sup>2</sup>.

Suv oqimi sarfining turli qiymatlarida foydali ish koeffisientining turbina aylanish tezligiga bog'liqligi grafigi qurildi (5 (e) rasm). Hidroturbinaning foydali ish koeffisienti 84...88 % oraliqda ekanligi aniqlandi.




**5-rasm. Turli suv oqimi sarflarida gidroturbinaning napori (a), mexanik momenti (b), mexanik quvvati (c) va foydali ish koeffisienti (d) ning aylanish tezligiga bog'liqlik grafiglari (uzluksiz chiziq-1-gidroturbina uchun (6-Q<sub>11</sub>=0,24 m<sup>3</sup>/s, 5-Q<sub>12</sub>=0,21 m<sup>3</sup>/s, 3-Q<sub>13</sub>=0,18 m<sup>3</sup>/s), siniq chiziq-2-gidroturbina uchun (4-Q<sub>21</sub>=0,19 m<sup>3</sup>/s, 2-Q<sub>22</sub>=0,17 m<sup>3</sup>/s, 1-Q<sub>23</sub>=0,14 m<sup>3</sup>/s)).**

6-rasmda suv oqimining sarfi va turbinaning aylanma tezligi o'zgarishining gidroturbinaning napori, momenti, mexanik quvvati, foydali ish koeffitsientlarining optimal qiymatlari va parraklarining optimal o'rnatilish burchagiga bog'liqligini aniqlash algoritmi ishlab chiqildi. Optimallashtirish masalasini yechishda jarima funksiya usulidan foydalanildi.

Ushbu algoritm asosida:

1. Propeller tipli gidroturbinaning  $H_t$  napori,  $M$  momenti,  $P$  mexanik quvvati va  $\eta$  foydali ish koeffitsientlarining optimal qiymatlarini  $n$  turbina aylanish tezligi va  $Q$  suv oqimi sarfining qiymatiga bog'liq ravishda aniqlash imkoniyati mavjud.

2.  $\theta$  gidroturbina parraklarining optimal o'rnatilish burchagining turbinaning  $H_t$  napori,  $M$  momenti,  $P$  mexanik quvvati,  $n$  aylanish tezligi va  $Q$  suv oqimi sarfining qiymatiga bog'liq ravishda aniqlash imkoniyati mavjud.



**6-rasm. Suv oqimining sarfi va turbinaning aylanma tezligining ( $H$ ,  $M$ ,  $P$ ,  $\eta$ ,  $\theta$ ) parametrlarga bog'liqlik algoritmi.**

1-jadvalda taklif etilayotgan gidroenergetik qurilmaning o'zgaruvchan suv sarfi va naporiga bog'liq optimal parametrlarini aniqlash natijalari keltirilgan.

**1-jadval.**

**Ishlab chiqilgan vertikal o'qli mikro gidroelektr stansiyasining optimal parametrlarini aniqlash natijalari.**


No	$Q_1$ , $m^3/s$	$n_1$ , ayl/ min	$P_1$ , W	$H_{t1}$ , m	$\alpha_1$ , grad.	$\beta_1$ , grad.	$\theta$ , grad.	$Q_2$ , $m^3/s$	$n_2$ , ayl/ min	$P_2$ , W	$H_{t2}$ , m
1	0,24	120	2338	1,1	25	95	110	0,19	80	1243	0,7

Gidroturbinalarning ichki diametri 0,5 m, parraklar soni 6 ta va maksimal suv sarfi 0,24 m<sup>3</sup>/s bo‘lganda parraklarning geometrik optimal o‘rnatilish burchagi  $\theta = 110^\circ$  bo‘lishi aniqlandi.

Taklif etilayotgan vertikal o‘qli mikro gidroelektr stansiyasining 1-gidroturbinasiga yo‘naltiruvchi apparatdan kirayotgan suv oqimi sarfi 0,24 m<sup>3</sup>/s va gidroturbinaning napori 1,1 m bo‘lganligi sababli 1-gidroturbinaning optimal aylanish tezligi 120 ayl/min va mexanik quvvati 2338 W bo‘ladi. O‘z navbatida, 2-gidroturbinaga kirayotgan suv oqimi sarfi 0,19 m<sup>3</sup>/s va gidroturbinaning napori 0,7 m bo‘lganligi sababli 2-gidroturbinaning optimal aylanish tezligi 80 ayl/min va mexanik quvvati 1243 W bo‘ladi. Mikro gidroelektr stansiyasining mexanik qismidan elektr generatorga uzatilayotgan umumiy mexanik quvvat 3581 W ga tengligi aniqlandi. Tasmali uzatmalar yordamida o‘zaro qarama-qarshi aylanadigan gidroturbinalarning aylanish tezliklari 2 marta oshirilib, elektr generator maksimal 400 ayl/min aylanish tezligiga erishadi.

Past naporli suv oqimlarida vertikal o‘qli mikro GES ning samaradorligini oshirish uchun yakor va induktori o‘zaro qarama-qarshi tomonga aylanuvchi, doimiy magnitlardan tashkil topgan kichik tezlikli magnitoelektrik aksial generatori ishlab chiqildi.


